

## NAVOIY VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-iyun\*)

Navoiy viloyati bo'yicha joriy yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2962,4 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,4 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 356,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 75,3 %), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 2605,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 416,7 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,7 % ga kamaygan) tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan viloyat hududlari qatoriga Navoiy shahri, Karmana tumani, Qiziltepa tumani, Xatirchi tumani va Zarafshon shahrini misol keltirishimiz mumkin.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd.so'm)




\*-dastlabki ma'lumotlar

2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan o'sish sur'atlari Navoiy shahri, Xatirchi tumani, Zarafshon shahri, Navbahor tumanlarida qayd etildi. Shuningdek, eng yuqori ko'rsatkich viloyatda Navoiy shahriga va aksincha eng past ko'rsatkich Uchquduq tumaniga to'g'ri kelmoqda.



## Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, %




**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining  
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Jami (mlrd.so`m)	Jamidan			
		Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	Ulushi, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	Ulushi, %da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>2962,4</b>	<b>356,9</b>	<b>12,0</b>	<b>2605,5</b>	<b>88,0</b>
<i>shahar va tumanlar:</i>					
Navoiy shahar	1090,7	337,3	30,9	753,4	69,1
Zarafshon shahar	221,6	3,8	1,7	217,8	98,3
Karmana tuman	476,2	1,3	0,3	474,9	99,7
Konimex tuman	78,3	0,4	0,5	77,9	99,5
Qiziltepa tuman	342,5	4,6	1,3	337,9	98,7
Navbahor tuman	176,4	0,5	0,2	175,9	99,8
Nurota tuman	112,1	1,4	1,2	110,7	98,8
Tomdi tuman	21,3	0,1	0,5	21,2	99,5
Uchquduq tuman	124,8	0,3	0,2	124,5	99,8
Xatirchi tuman	318,5	7,2	2,3	311,3	97,7

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 75,3 % ga o'sdi va 356,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 12,0 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 2605,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 2,0 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,0 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasida  
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, %



Joriy yilning yanvar-iyun oylari tahliliy natijalariga qaraganda, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo`yicha Navbahor (99,7%), Karmana (99,7%), Uchquduq (99,7%), Konimex (99,5%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 12,0 % ni tashkil etib, eng katta ulush asosan Navoiy shahrida (30,9 %) va Xatirchi tumanida (2,3 %) kuzatilgan.

**Mulkchilik shakli bo'yicha**  
**chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd.so'm)**


	<b>Jami</b>	<b>Nodavlat mulki</b>	<b>Davlat mulki</b>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>2962,4</b>	<b>2957,6</b>	<b>4,8</b>
<i>shahar va tumanlar:</i>			
Navoiy shahar	1090,7	1086,0	4,7
Zarafshon shahar	221,6	221,6	-
Karmana tuman	476,2	476,1	0,1
Konimex tuman	78,3	78,3	-
Qiziltepa tuman	342,5	342,5	-
Navbahor tuman	176,4	176,4	-
Nurota tuman	112,1	112,1	-
Tomdi tuman	21,3	21,3	-
Uchquduq tuman	124,8	124,8	-
Xatirchi tuman	318,5	318,5	-

**Mulkchilik shakli bo'yicha**  
**chakana savdo tovar aylanmasi ulushi, (%)**

**2018 yil yanvar-iyun**



**2019 yil yanvar-iyun**



Yuqoridagi solishtirma diagrammalardan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019 yil yanvar-iyun oylarida 2957,6 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,002 foizga ko'paydi.

Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019 yil yanvar-iyun oylarida 4,8 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,002 foizga kamaydi.


Shuningdek, ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 3,0 mln. so'mni tashkil etdi.

O'rtacha aholi jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Navoiy shahri (8,0 mln. so'm), Karmana tumani (3,7 mln. so'm) va Uchquduq tumanida (3,4 mln. so'm) kuzatildi.

#### **Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi**

	<b>Aholi jon boshi (ming sum)</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati (%)</b>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>3013,6</b>	<b>105,6</b>
Navoiy shahar	7984,3	116,3
Zarafshon shahar	2680,0	101,7
Karmana tuman	3705,5	99,1
Konimex tuman	2231,7	101,2
Qiziltepa tuman	2287,8	99,6
Navbahor tuman	1586,1	100,5
Nurota tuman	1227,5	100,8
Tomdi tuman	1468,8	101,3
Uchquduq tuman	3364,4	100,5
Xatirchi tuman	1623,6	102,1


**Chakana savdo tovar aylanmasida  
viloyat hududlarining ulushi, %**



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (36,8 foiz), Karmana tumani (16,1 foiz), Qiziltepa tumani (11,6 foiz), Xatirchi tumani (10,8 foiz), va Zarafshon shahri (7,5 foiz) chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Jumladan, 2019 yilning yanvar-iyun oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,6 % ni tashkil etib, 77,9 mlrd.so`mga yetdi yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,7 % o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 89,8 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

Hududlar kesimida ovqatlanish tashkilotlari  
savdo aylanmasi hajmi



Shuningdek, ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi 7,9 mlrd. so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 8,8 % ga ko`paygan), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 70,0 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 4,2 %) tashkil etdi.

Viloyatda yirik umumiy ovqatlanish korxonalarining  
tovar aylanmasi hajmi

	Jami	O`sish sur`ati, % da	Shundan		
			Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`sish sur`ati, % da	Ulushi, %da
Navoiy viloyati	77,9	104,7	7,9	108,8	10,2

shaharlar



Navoiy shahar	33,8	105,6	7,8	109,2	23,3
Zarafshon shahar	9,4	104,2	-	-	-
<i>tumanlar:</i>					
Karmana tuman	13,1	104,3	0,1	66,9	0,4
Konimex tuman	1,5	103,5	-	-	-
Qiziltepa tuman	6,0	103,9	-	-	-
Navbahor tuman	2,5	103,0	-	-	-
Nurota tuman	1,8	103,6	-	-	-
Tomdi tuman	0,8	104,5	-	-	-
Uchquduq tuman	2,8	104,1	-	-	-
Xatirchi tuman	6,2	103,4	-	-	-

**Viloyatda kichik umumiy ovqatlanish korxonalarining  
tovar aylanmasi hajmi**

	Jami	O'sish sur'ati, % da	Shundan		
			Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, %da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>77,9</b>	<b>104,7</b>	<b>70,0</b>	<b>104,2</b>	<b>89,8</b>
<i>shaharlar</i>					
Navoiy shahar	33,8	105,6	26,0	104,6	76,7
Zarafshon shahar	9,4	104,2	9,4	104,2	100,0
<i>tumanlar:</i>					

Karmana tuman	13,1	104,3	13,0	104,5	99,6
Konimex tuman	1,5	103,5	1,5	103,5	100,0
Qiziltepa tuman	6,0	103,9	6,0	103,9	100,0
Navbahor tuman	2,5	103,0	2,5	103,0	100,0
Nurota tuman	1,8	103,6	1,8	103,6	100,0
Tomdi tuman	0,8	104,5	0,8	104,5	100,0
Uchquduq tuman	2,8	104,1	2,8	104,1	100,0
Xatirchi tuman	6,2	103,4	6,2	103,4	100,0

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibidagi ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan viloyat hududlari qatoriga Navoiy shahri, Karmana tumani, Zarafshon shahrini, Xatirchi tumani, Qiziltepa tumanini misol keltirishimiz mumkin.


### Mulkchilik shakli bo'yicha

#### ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi, (mlrd. so'm)

	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>77,9</b>	<b>75,4</b>	<b>2,5</b>
<i>shahar va tumanlar:</i>			
Navoiy shahar	33,8	31,4	2,4
Zarafshon shahar	9,4	9,4	-
Karmana tuman	13,1	13,0	0,1
Konimex tuman	1,5	1,5	-
Qiziltepa tuman	6,0	6,0	-
Navbahor tuman	2,5	2,5	-

Nurota tuman	1,8	1,8	-
Tomdi tuman	0,8	0,8	-
Uchquduq tuman	2,8	2,8	-
Xatirchi tuman	6,2	6,2	-

**Navoiy viloyatida mulkchilik  
shakli bo'yicha ovqatlanish  
korxonalari savdo aylanmasi ulushi, (%)**



Yuqoridagi solishtirma diagrammalardan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019 yil yanvar-iyun oylarida 75,4 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,2 foizga kamaydi.


Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019 yil yanvar-iyun oylarida 2,5 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,2 foizga ko'paydi.

NAVOIY VILOYATININGINING  
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-iyun\*)

2019 yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1124,1 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 2,1 foizga oshdi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi , (mlrd.so`m)



- |             |                |
|-------------|----------------|
| ■ Navoiy sh | ■ Zarafshon sh |
| ■ Karmana   | ■ Konimex      |
| ■ Qiziltepa | ■ Navbahor     |
| ■ Nurota    | ■ Tomdi        |
| ■ Uchquduq  | ■ Xatirchi     |


Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmiga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-iyun oylari yakunlariga ko`ra, 635,3 mlrd.so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 99,9 % ni tashkil qildi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 56,5 %ni tashkil qilmoqda.

\*-dastlabki ma`lumotlar

Ulgurji savdo tovar aylanmasining tarkibida kichik tadbirkorlik sub`ektlari aylanmasining ulushi esa 43,5 % ni tashkil etdi.

2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida ulgurji savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari kuzatilib, nisbatan o`shish sur`atlari Karmana tumani, Xatirchi tumani, Qiziltepa tumani, Zarafshon shahri, Navbahor tumanlarida qayd etildi. Shuningdek, eng yuqori ko`rsatkich viloyatda Karmana tumaniga va aksincha eng past ko`rsatkich Navoiy shahriga to`g`ri kelmoqda.

### Ulgurji savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari



Quyidagi jadval ma'lumotlari tahlili asosida viloyatda faqatgina Navoiy shahrida va Xatirchi tumanida yirik korxonalar tomonidan ulgurji savdo tovar aylanmasi mavjud bo'lib, qolgan 8 ta hududda asosan ulgurji savdo tovar aylanmasi kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan amalga oshirilgan.

Shuningdek, shahar va tumanlar orasida eng yuqori ulgurji savdo tovar aylanmasiga ega bo'lgan hudud bu Navoiy shahri bo'lib, uning tovar aylanmasi 796,0 mlrd.so'mni tashkil etadi (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,9 % ni tashkil qiladi.)

**Ulgurji savdo tovar aylanmasida  
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning hajmi**


	<b>Jami (mlrd.so`m)</b>	<b>Kichik korxonalar (mlrd.so`m)</b>	<b>Ulushi, %da</b>	<b>Yirik korxonalar (mlrd.so`m)</b>	<b>Ulushi, %da</b>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1124,1</b>	<b>488,8</b>	<b>43,5</b>	<b>635,3</b>	<b>56,5</b>
Navoiy shahar	796,0	161,2	20,3	634,8	79,7
Zarafshon shahar	27,1	27,1	100,0	-	-
Karmana tuman	182,8	182,8	100,0	-	-
Konimex tuman	5,5	5,5	100,0	-	-
Qiziltepa tuman	34,8	34,8	100,0	-	-
Navbahor tuman	38,5	38,5	100,0	-	-
Nurota tuman	4,0	4,0	100,0	-	-
Tomdi tuman	1,1	1,1	100,0	-	-
Uchquduq tuman	6,9	6,9	100,0	-	-
Xatirchi tuman	27,4	26,9	98,2	0,5	1,8

**Hududlar kesimida mulkchilik shakli bo'yicha  
ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd.so'm)**


	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1124,1</b>	<b>1123,5</b>	<b>0,6</b>
<i>shahar va tumanlar:</i>			
Navoiy shahar	796,0	796,0	-
Zarafshon shahar	27,1	27,1	-
Karmana tuman	182,8	182,2	0,6
Konimex tuman	5,5	5,5	-
Qiziltepa tuman	34,8	34,8	-
Navbahor tuman	38,6	38,6	-
Nurota tuman	4,0	4,0	-
Tomdi tuman	1,1	1,1	-
Uchquduq tuman	6,9	6,9	-
Xatirchi tuman	27,3	27,3	-

**Mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo  
tovar aylanmasi ulushi, (%)**

**2018 yil yanvar-iyun**




**2019 yil yanvar-iyun**



Yuqoridagi solishtirma ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019 yil yanvar-iyun oylarida 1123,5 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,02 foizga ko'paydi.

Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019 yil yanvar-iyun oylarida 0,6 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,02 foizga kamaydi.

### Ulgurji savdo tovar aylanmasida viloyat hududlarining ulushi, %



Tahlil natijalariga ko'ra Navoiy viloyatida ulgurji savdo tovar aylanmasining asosini Navoiy shahridagi ulgurji savdo tovar aylanmasi tashkil qiladi va xuddi shuningdek ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (70,8 foiz), Karmana tumani (16,3 foiz) va Navbahor tumani (3,4 foiz) ulgurji savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo'limi  
Tel.: (0871) 230-84-36